

O'PKA KASALLIKLARI: TURLARI, SABABLARI VA PROFILAKTIK CHORALARI

O'rinova Noila To'lqin qizi

orinovanoila07@gmail.com

Mahmudova Gulsanam Jasur qizi

Toahkent Davlat Tibbiyot Universiteti Termiz filiali

Pediatriya fakulteti Stomatologiya yo'nalishi 1-kurs talabasi

gulsanamaxmudova906@gmail.com

Hasanov Dilmurod Abdurahon o'g'li

Anatomiya va klinik anatomiya kafedraasi assistenti

dilmurodhasanov1195@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'pka kasalliklarining kelib chiqishi, alomatlari va belgilari hamda davolash usullari batafsil tahlil qilinadi. Bugungi kungacha dunyoda o'pka kasalliklarining 20 ga yaqin turlari aniqlangan. Ular orasida eng keng tarqalgani pnevmoniya va sil kasalliklari hisoblanadi. O'pka kasalliklarining paydo bo'lishiga asosan, noqulay ekologik sharoit, surunkali kasalliklarining kuchayishi, asab kasalliklari va shakar miqdorining oshishi sabab bo'ladi. O'pka kasalliklari asosan ayollarga qaraganda katta yoshli erkaklarda uchraydi. O'pka kasalliklarining belgilari yo'tal bo'lib insonni surunkali yo'tal qiynaydi. Shu bilan birga havo yetishmasligi, tomoqda balg'am paydo bo'lishi, ko'p terlash va o'pkadagi og'riq kabi alomatlar ham namayon bo'ladi. Pnevmoniya kasalligi o'pkani virus va bakteriyalar bilan zaralanishi umuman olganda infeksiyali kasallik hisoblanadi. Kasallikda o'pka to'qimalarining yallig'lanishi, alveolalarga suv to'planib qolishi kuzatiladi. Sil kasalligi asosan, bakteriya sababli yuzaga keladigan kasallik bo'lib o'pkani zararlaydi, lekin suyak, buyrak va boshqa organlarga ham tarqalishi mumkin.

Kalit so'zlar: pnevmoniya, sil, surunkali, virus, bakteriya, infeksiya

Kirish: Pnevmoniya kasalliklarining sabablari va profilaktikasi: Butun dunyoda ommaga tarqalgan COVID-19 infeksiyasi inson organizimi yuqori nafas

yo'llari shilliq qavatiga tushib u yerlarni zararlab ikkilamchi kasallikka ya'ni pnevmoniyaga olib keladi. Pnevmoniya turlari patogenlar, jumladan, bakteriyalar, viruslar va kamdan-kam hollarda zamburug'lar tomonidan yuzaga keladi. Bu kasallikda o'pkada balg'amli nafas seziladi va xirillash kuzatiladi hamda balg'amli nam yo'tal boshlanadi. Bundan tashqari ko'krak qafasida og'riq yoki noqulaylik, charchoq, umumiy holsizlik, ishtahaning pasayishi va tana haroratining oshishi kabi holatlarni ham ko'rish mumkin. Kasallikni oldini olish uchun vitaminlarga boy taomlar iste'mol qilish, jismoniy faollik, va to'g'ri uyqu rejimi, shuningdek qo'llarni tez-tez yuvish infeksiya avj olgan vaqtlarda jamoat joylarida niqob taqish muhim. Chekish o'pkaning himoya qatlamini shikastlab infeksiyalarga yo'l ochadi, shuning uchun bu odatdan yiroq bo'lish lozim.

Asosiy qism: Sil kasalligini davolash choralari: Sil – tuberkulyoz o'pkada o'ziga xos yallig'li o'zgarishlar bilan ro'y beradigan yuqimli surunkali kasallikdir. Sil havo tomchi yo'li bilan tarqaladi. Sil kasalligi bilan kasallangan bemor gigiyena qoidalariga amal qilmasa boshqalarga yuqtirishi mumkin. Sil mikobakteriyalari faqat o'pkani emas balki, organizmdagi soch va tirnoqdan boshqa hamma suyaklar, bo'g'imlar, buyraklar va boshqa a'zolari zararlaydi. Ushbu kasallik hos belgilar yoshga, kasallik shakliga va boshqa sabablarga bog'liq. O'ka sili rivojlanganda, mikobakteriyalar ko'payganda organizmda zaharlanish alomatlari paydo bo'ladi: holsizlik, tez charchash, tunda terlash va ozib ketish holatlari kuzatiladi. Keyinchalik bemorda yotal zo'rayadi, hansirash paydo bo'ladi va nimjon bo'lib qoladi. Bu kasallik bilan og'riq bemor shifokor nazoratida bo'lishi kerak, zamonaviy dorilardan kasallikni turi, og'ir yengilligiga qarab tayinlanadi. Odatda bu dorilar uzoq vaqt davomida qo'llaniladi.

Xulosa: Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, o'pka kasalliklari inson hayoti uchun jiddiy xavf tug'diradi. Shu sababli ularni oldini olish, tez aniqlash va samarali davolashga alohida e'tibor berish zarur. Sog'lom o'pka – bu sog'lom hayotning asosi shuning uchun har bir inson o'z nafas olish tizimini asrab avaylashi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ahmedov . A “Atlas Odam anatomiyasi|”
2. Ubaydullayev. A “ Nafas organlari kasalliklari”
3. Jumabaev.X “Nafas olish tizimi a'zolari kasalliklarini o'smirlar, qariyalar va homiladorlarda kechishi”